



Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi




QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2022- YILNING
YANVAR-SENTABR OYLARIDA

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-sentabr

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug'urtalash va har xil turdagi vositachilikga qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qiladi.



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-sentabr



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tash-kilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **7439,2** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **1459,2** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **116,4** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Dastlabki ma'lumotlar


2022- yil yanvar-sentabr

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-sentabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	7439,2	116,4
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	394,5	117,6
Moliyaviy xizmatlar	1620,0	122,5
Transport xizmatlari	1956,5	127,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	926,6	104,0
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	166,3	103,0
Savdo xizmatlari	1626,6	104,2
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	173,1	109,4
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	492,7	120,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	97,1	110,2
Ijara xizmatlari	137,4	111,4
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	214,3	108,9
Shaxsiy xizmatlar	278,3	106,0
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	81,1	110,9
Boshqa xizmatlar	201,3	110,6

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-sentabr

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni transport xizmatlari egallaydi. 2022- yil yanvar-sentabr oylarida bu xizmatlarning ulushi **26,3 %** ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar (**21,8 %**), savdo xizmatlari (**21,9 %**), shuningdek, ta'lim sohasidagi xizmatlar (**6,6 %**) bo'yicha qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-sentabr

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari sohasidagi xizmatlar hajmida unchalik katta bo'lmagan o'sish qayd etildi, ularning ulushi **1,1 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida transport xizmatlari umumiy hajmning **25,0 %** ini tashkil etgan. 2021- yilning shu davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari sohasidagi xizmatlar ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **1,1 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi.


Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida yuqori o'sish transport xizmatlarida (**27,2 %**), moliya xizmatlarida (**22,5 %**), ta'lim sohasidagi xizmatlarda (**20,0 %**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (**17,6 %**), ijara xizmatlarda (**11,4 %**), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda (**10,9 %**), boshqa xizmatlarda (**10,6 %**) qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-sentabr

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor
xizmatlarining o'sish sur'atlarini taqqoslash, % da**



Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **80,9 %**. Yashash va ovqatlanish xizmatlari o'sish sur'atlarida pasayish kuzatilgan – **0,2 %**.



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini iste'molchiga yetkazib berishdek zarur vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **21,9 %** ni tashkil etib, bu **1626,6** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ularning hajmi **1388,3** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **23,2 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-sentabr

2022- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rt dan uch qismini, aniqlig'i, **76,0 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **16,3 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajmni avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi (**7,7 %**) tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining tarkibi (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida)



Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-sentabr oylarida chakana savdo ulushi **75,8 %** ga yetdi.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-sentabr



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar

(2022- yil yanvar-sentabr oylarida)

2022- yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1620,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-sentabr oylarida ularning hajmi **1278,2** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2022- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **21,8** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ularning ulushi **21,4** % ni ashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **341,8** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **22,5** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ularning o'sish sur'ati **131,4** % ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-sentabr


Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **84,2 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **13,3 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **2,5 %** ini tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2022- yil yanvar-sentabr oylarida)

Sug'urta va nafaqa
ta'minoti bo'yicha
xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar



Sug'urta
bo'yicha
xizmatlar

Yordamchi
moliyaviy
faoliyat

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **87,0 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **10,4 %** ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **2,6 %**.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-sentabr



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

2021- y. yanvar-sentabr

2022- y. yanvar-sentabr




Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-sentabr


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2022- yil yanvar-sentabr oylarida ularning ulushi **93,6 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da

2021-y. yanvar-sentabr



2022-y. yanvar-sentabr



Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **92,9 %** ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-sentabr

Info

Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

2022- y. yanvar-sentabr

120,0 %

O'tgan yilga
nisbatan o'sish
sur'atlari

**492,7
mlrd. so'm**

Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari
hajmi

6,6 %

Umumiy
hajmdagi ulushi

180,9 %

6,4 %

**380,4
mlrd. so'm**

2021- y. yanvar-sentabr

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **492,7** mlrd. so'mga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **6,6 %** ini tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **120,0 %** ni tashkil etdi.

Dastlabki ma’lumotlar

2022- yil yanvar-sentabr


Info

Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog‘liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatolo-giya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetolo-giya klinikalari, giyohvand moddalarni iste’mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

**2021- y.
Yanvar-sentabr**

**2022- y.
Yanvar-sentabr**



Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m

**Xizmatlar jami hajmidagi
ulushi, % da**

O‘sinh sur‘ati, % da

Dastlabki ma'lumotlar


2022- yil yanvar-sentabr

Info

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-sentabr

2021-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **32,8** mlrd. so'mga ko'paydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da

**2021- y.
yanvar-
sentabr**

Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar

**2022- y.
yanvar-
sentabr**



2022- yil yanvar-sentabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **89,2** % bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-sentabr oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **89,4** % ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-sentabr

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2022- y.	2021- y.
Qoraqalpog'iston Respublikasi	7439,2	116,4	121,1
Nukus sh.	3100,4	114,2	119,4
tumanlar:			
Amudaryo	379,2	115,4	122,5
Beruniy	370,8	110,0	119,9
Bo'zatov	39,5	115,3	132,9
Qorao'zak	123,1	110,4	123,0
Kegeyli	135,6	110,9	129,2
Qo'ng'iro't	1114,4	141,3	124,5
Qonliko'l	101,2	110,9	124,0
Mo'ynoq	90,7	111,1	122,2
Nukus t.	155,4	111,3	120,1
Taxiatosh	164,1	110,0	108,2
Taxtakopir	109,9	112,0	125,2
To'rtko'l	580,2	110,7	121,3
Xo'jayli	315,4	110,5	126,6
Chimboy	226,3	110,8	124,0
Shumanay	104,4	113,1	125,0
Ellikqal'a	328,6	114,0	120,8

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-sentabr

Info

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2022- yil yanvar-sentabr oylarida)



Xizmatlar sohasining eng past ko'rsatkichlari Bo'zatov tumanida – **0,5 %** (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida – **0,5 %**) qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-sentabr

Info

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

Hajmning
o'sishi

3796,4
ming so'm

700,6
ming so'mga



114,7 %

O'sish sur'ati

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3796,4** ming so'mga yetdi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **114,7 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **3095,8** ming so'mni tashkil etgan.

2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **119,6 %** da qayd etilgan.